XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-022-3-50-K/24 Zafarobod tumani

Tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2025 yilda bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, tuman soliq inspeksiyasining 2024-yil 2-dekabrdagi 01-04106-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Zafarobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Zafarobod tumanida yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 47,52 mln. so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 387,2 so‘m belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2025 yilda bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida kiritilgan takliflari ma’qullansin.

3. Tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 1-ilovaga,jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi yuqorida 1 va 2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Adilov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Xusanov), tuman soliq inspeksiyasi (J.Alimqulov)larga 2025-yildagi budjet-

soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Zafar yo‘lidan” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining zafarobod.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Qaror 2025-yil 1-yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.b J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ESHPULATOV G‘AYRATJON ESHPULATOVICH

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-3-50-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hududlar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan Zafarobod tumaniga belgilangan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	1 gektar uchun yer solig‘i stavkasi, so‘mda
1	Birlik QFY	47520000,00	0.78	37 065 600.00
2	Bo‘ston MFY	47520000,00	0.83	39 441 600.00
3	Yorkin ShFY	47520000,00	0.78	37 065 600.00
4	Lolazor QFY	47520000,00	0.70	33 264 000.00
5	Nurafshon ShFY	47520000,00	0.73	34 689 600.00
6	Pistalikent ShFY	47520000,00	0.73	34 689 600.00
7	Samarqand MFY	47520000,00	0.83	39 441 600.00
8	Uzun QFY	47520000,00	0.78	37 065 600.00
9	Chimqo‘rg‘on QFY	47520000,00	0.70	33 264 000.00
10	Cho‘liguliston QFY	47520000,00	0.70	33 264 000.00

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-3-50-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Hududlar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan Zafarobod tumaniga 1 kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	1 kv.m. uchun yer solig‘i stavkasi, so‘mda
1	Birlik KFY	387,20	0.90	348.48
2	Bo‘ston MFY	387,20	0.95	367.84
3	Yorkin MFY	387,20	0.90	348.48
4	Lolazor MFY	387,20	0.78	302.02
5	Nurafshon ShFY	387,20	0.82	317.50
6	Pistalikent ShFY	387,20	0.82	317.50
7	Samarqand MFY	387,20	0.95	367.84
8	Uzun MFY	387,20	0.85	329.12
9	Chimqo‘rg‘on MFY	387,20	0.78	302.02
10	Cho‘liguliston MFY	387,20	0.78	302.02